



UYUSHMAGAN YOSHLAR TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Mamadalieva Madina Murod qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-
o'quv kursi 311-guruh kursanti

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent,

100197, O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14605000>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025

Accepted: 4th January 2025

Published: 6th January 2025

KEYWORDS

*yoshlar, uyushmagan yoshlar,
ijtimoiy faollik, ommaviy
madaniyat, yoshlar bilan profilaktik
chora-tadbirlar.*

ABSTRACT

*Maqolada yoshlar, uyushmagan yoshlar
tushunchalari uning kriminologik tavsifi, ushbu
faoliyatning jamiyatimiz xayotidagi ahamiyatini
tadqiq etadi.*

Bugungi kunda dunyo aholisining deyarli 30 foizini yoshlar tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 60 foizdan oshishi xalqimizning, davlatimizning bebaho boyligidir. Ular uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan ham aytishimiz mumkinki yoshlar – bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

«Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so'z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so'zlari birikmasidan tashkil topgan. «Uyushmagan» so'zining o'zagi «uyushiq» bo'lib, unga o'zbek tilining izohli lug'atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma'nodosh bo'lgan «uyushma» so'ziga esa «bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan¹. Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so'zi «uyushiq» yoki «uyushma» so'zlarining aksi, ya'ni antonimi bo'lib, «jipslashmagan, ahil bo'lmagan, muayyan bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma'nolarini anglatadi.

Shu o'rinda rus olimi D.M. Kafarovaning fikriga qo'shilgan holda aytish kerakki, bevosita uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi haqida so'z yuritishdan oldin, avvalambor, uyushmagan yoshlarning o'zini, ularning ongi, xulq-atvori, ijtimoiylashuv darajasi, shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega².

Uyushmagan yoshlar o'zining jinoyat sodir etishga moyilligi bilan yoshlarning boshqa qatlamidan ajralib turadi. Umuman olganda, har qanday jinoiy harakat, avvalo, odamning

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т., 2008. – 608 б.

²Кафарова Д.М. Криминологический анализ и профилактика общественно опасных деяний подростков, не достигших возраста уголовной ответственности: автореф....дис. канд. юрид. наук. – М., 2009. – С. 15.

intellektual, emotsional va axloqiy fazilatlarini aks ettirishini inobatga olganda³, ilmiy tadqiqotlarda quyidagi shaxslar, xususan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lishi asoslangan yoshlar:

o'qishni tugatganlar, armiya safidan bo'shatilganlar, korxonalarining tugatilishi tufayli ishsiz bo'lib qolgan mutaxassislar, biroq jinoiy jazodan ozod etilgandan keyin ish bilan ta'minlanmaganlar⁴;

tug'ma psixologik xususiyatlarga, ya'ni g'ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishga undaydigan psixologik jihatlarga ega bo'lganlar, g'ayriqonuniy ishlarni kasb qilib olganlar, murakkab psixologik muhit hukmron bo'lgan to'liq bo'lmagan oilada yashayotganlar⁵;

boshqa viloyat yoki tumanlardan kelganlar, ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilganlar, hech qaerda ishlamaydiganlar, moddiy jihatdan yetishmovchilik qiynayotganlar, oliy ma'lumotga ega bo'lmaganlar, nikohi qayd etilmagan, ajrashgan yoki oilali bo'lmaganlar, muntazam spirtli ichimliklar iste'mol qiladiganlar, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydigan yoki mehnat bilan band bo'lmaganlar⁶;

yengil yo'l bilan boylik orttirishga intiluvchilar⁷ (masalan, 1995 yilda tug'ilgan, hech qaerda ishlamaydigan fuqaro O'. 2018 yil 11 yanvar kuni Urganch tumani Yuqorijirmiz mahallasida yashovchi, F.ning uyiga hech kim yo'qligida kalit tanlash yo'li bilan kirib, yotoqxonada shkafda turgan 200 000 so'm pullarni va stol ustida turgan bahosi 500 000 so'mlik bir dona telefon apparatini o'g'irlab ketgan⁸);

ichkilikbozlik va giyohvandlikka moyil shaxslar⁹;

uyatsiz, buzuq, axloqsiz ishlar bilan shug'ullanishga moyilligi bo'lganlar, xususan jamoat joylarida uyatsiz, buzuq, axloqsiz ishlar (besharm kiyimlarda yurish, shilqimlik qilish, o'pishib o'tirish va boshq.) bilan shug'ullanayotganlar¹⁰;

fuqarolarni Davlat chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tishiga ko'maklashish va chet elda ishga joylashtirishni tashkil etish bilan g'ayriqonuniy ravishda shug'ullanuvchilar, avtotransport vositalarida xorijiy mamlakatlarga yo'lovchi va yuklarni tashish bilan shug'ullanuvchilar, xorijiy mamlakatlarda norasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, xorijiy davlatlardan deportatsiya qilinganlar, muqaddam sudlanganlar, ilgari odam savdosidan jabrlanganlar, islovotxona (fohishaxona, bangixona, qimorxona, ishratxona) saqlovchilar va qo'shmachilar, atrofdagilar uchun xavf soluvchi kasalliklarga (tanosil kasalliklari, OIV infeksiyasi va h.k.) chalinganlar, «yosh va jozibali ayollar»ga, «qo'lida hunari bor erkaklar»ga chet elda durustgina maosh to'lanadigan ishlarni taklif qiluvchilar, turistik

³Абдурасулова Қ.Р., Ниёзова С.С. Жиноятчилик ва жиноятчи шахси муаммолари: Ўқув қўлланма. – Т., 2006. – Б.51.

⁴Имамов Р. Зўрлик ишлатмасдан талон-торож қилиш жиноятлари учун жазо тайинлаш: Юридик фанлар номзоди диссертацияси автореферати. – Т., 2011. – Б. 17.

⁵Расулев А.К. Ахборот технологиялари ва хавфсизлиги соҳасидаги жиноятларга қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик чораларини такомиллаштириш: Юрид. фан. б-ча д-ри (DSc) дис. ... автореф. – Т., 2018. – Б. 22-23.

⁶Ўразалиев М.Қ. Алкоголизм, фоҳишалар ва гиёҳвандликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги, уларнинг криминалогик хусусиятлари ва олдини олишни такомиллаштириш: Докторлик дис. ... автореф. – Т., 2016. – Б. 18, 23.

⁷Махкамов О.М. Солиқ ёки бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари: Докторлик дис ... автореф. – Т., 2015. – Б. 10.

⁸Жиноят ишлари бўйича Урганч тумани суди архивидаги жиноят иши материаллари. 2018 йил.

⁹Зарипов З.С., Мухторов Ж.С. Маиший турмушда содир этиладиган жиноятларнинг криминалогик тавсифи ва профилактикаси // Криминалогия. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси. – Т., 2015. – Б. 303.

¹⁰Ганиев Ш.А. Ахлоққа қарши ҳуқуқбuzарликлар учун маъмурий жавобгарликни такомиллаштириш: Докторлик дис. ... автореф. – Т., 2016. – Б. 30.

firmalar, mehnat birjalari, nikoh, modellar agentliklari, sauna, klub, diskoteka singari ko'ngil ochar (dam olish) joylarda faoliyat ko'rsatadigan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega shaxslar¹¹.

Sohaga doir qonun hujjatlarining tahlili hozirgi kunda milliy qonunchiligimizda «uyushmagan yoshlar» tushunchasiga huquqiy ta'rif berilmaganini ko'rsatadi. Mazkur tushunchaga huquqiy nuqtai nazardan ta'rif berish, uning ilmiy jihatdan mohiyatini ochib berish uchun, avvalo, uning asosiy xususiyatlarini aniqlab olish talab qilinadi.

Soha olimlarining yuqoridagi fikrlari asosida, uyushmagan yoshlarga xos asosiy xususiyatlarni o'rganish maqsadida respondentlarning fikrlari o'rganilganda, quyidagilarni uyushmagan yoshlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar sifatida e'tirof etish lozimligi ma'lum qilingan:

a) ish bilan band bo'lmaganligi (94 %);

b) o'qish bilan band bo'lmaganligi (62 %);

v) tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmaganligi (28 %);

g) «ommaviy madaniyat» va yot g'oyalar ta'siriga berilishga moyilligi (24 %) [3-ilova].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev uyushmagan yoshlar xususida bildirgan fikrlarida ishlamaslik, o'qimaslik, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmaslik, salbiy ta'sirlarga beriluvchanlik xususiyatlari ularga xosligiga alohida urg'u bergan bo'lishiga¹² qaramasdan, «uyushmagan yoshlar» tushunchasiga nisbatan aniq ta'rif ishlab chiqilmagani va mazkur toifa yoshlar bilan ishlashga doir aniq chora-tadbirlarning belgilanmagani ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qolaversa, uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi sub'ektlar faoliyatining tahlili uyushmagan yoshlarning hisobini yuritishda aniqlik yetishmayotganini, ushbu toifaga kimlar kirishi hamda ular bilan qanday ishlar tashkil etilishi haqida aniq konsepsiya mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid yagona davlat siyosatini samarali ta'minlash, amaliyotda yoshlar jinoyatchiligining hisobini yuritish va natijalaridan foydalanish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan toifalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida, vakolatli davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi) tomonidan yuritilayotgan yoshlar jinoyatchiligiga doir statistik va hisobot hujjatlarida ular yoshining aniq chegarasi, toifalari va boshqa mezonlar yuzasidan yondashuvni birxillashtirish, yagona tizimga solish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog'ini tashkil etuvchi, o'zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g'oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo'lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

Фойдаланган адабиётлар:

1. G'aniev F. T. Turkiya respublikasi: tabiyati, madaniyati va an'analari //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.

¹¹Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари: Д-ри дис.... автореф. — Т., 2016. — Б. 27.

¹²Президент Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/729> (30.06.2017).

2. G'aniev F. T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – С. 84-90.
3. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik haqida tushuncha, o'g'irlikning psixologik genezisi va mehanizmlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 43-47.
4. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
5. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
6. Ганиев Ф. Т. Ўғирлик жиноятларининг жиноят-ҳуқуқий жиҳатлари ва олдини олишга доир фикр-мулоҳазалар //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 301-313.
7. Ганиев Ф. Профилактика инспекторлари томонидан ўғирликларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш йўналишлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.
8. Ганиев Ф. "Обод ва хавфсиз маҳалла" тамойилига асосланган тизимни жорий этишда фуқоролар йиғинларини фаолиятини тизимли йўлга қўйиш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.
9. Ганиев Ф. Ахборот хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси таъминланганига қарамасдан содир этиладиган жиноятлар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 129-138.
10. Taxirjanovich G. F., Qizi M. F. M. EKOLOGIYA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING O'ZIGA XOSLIGI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 8-10.
11. Ganiyev F., O'zoqboyev S. ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИГА ҚАРШИ КУРАШИШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ-ДАВР ТАЛАБИ //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 125-130.
12. Ganiyev F., Ganiyeva G. O 'G 'IRLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA PROFILAKTIKASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 173-177.
13. G'aniyev F. PREVENTION OF OFFENSES RELATED TO RELIGIOUS EXTREMISM //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 125-128.
- G'Aniyev, F. "DINIY EKSTERIMIZM BILAN BOG'LIQ BO'LGAN QONUNBUZARLIKLARNING PROFLAKTIKASI." *Science and innovation* 1.C7 (2022): 125-128.
14. G'aniev F. T. O 'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MILLIY PREVENTIV MECHANIZMI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 84-90.
15. Нарзиев Ш. З. и др. КИБЕР-ЖИНОЯТЧИЛИК ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШИШ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 9-13.
16. Нарзиев Ш. З. Профилактика инспекторларининг илгари судланган шахслар билан ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси чора-тадбирларини амалга ошириш фаолияти ҳақида айрим масалалар //zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari. – 2022. – С. 159-162.
17. Нарзиев Ш., Абдумаликов Р. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРДАН ЖАБРЛАНГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 63-70.

18. Нарзиев Ш., Омонов Н. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТАЯНЧ ПУНКТЛАРИ НЕГИЗИДА ҲАМКОРЛИКНИ ҲУҚУҚИЙ ТАЪМИНЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 184-188.
19. Нарзиев Ш., Қодирова И. БАРКАМОЛ, ЖИСМОНИЙ ВА РУҲИЙ СОҒЛОМ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШДА ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН ЎҚУВ-ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 152-155.
20. Нарзиев Ш., Зокиров Н. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ ВА ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 156-164.
21. Нарзиев Ш., Абдулҳакимов Ж. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ АХБОРОТ ТАҲЛИЛ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ ФАОЛИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 80-87.
22. Нарзиев Ш., Ибадуллаев Д. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТСИЗ ВА ТАРБИЯСИ ОҒИР БЎЛГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИ ҲАМДА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 125-131.
23. Нарзиев Ш., Усмонов М. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ СУРИНКАЛИ ИЧКИЛИККА РУЖУ ҚЎЙГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 19. – С. 5-12.
24. Нарзиев Ш., Мирзаикромов Ф. ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР СОДИР ЭТИЛИШИ САБАБЛАРИ ВА УЛАРГА ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 147-151.

INNOVATIVE
ACADEMY